



UDK: 915 330.15 (045)

**Dilafroz MURODOVA,**  
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi  
E-mail: dilafrozmurodova@gmail.com

*Samarqand davlat universiteti dotsenti O.L.Muhamedov taqrizi asosida*

## QASHQADARYO VILOYATI SHAHAR MANZILGOHLARI SHAKLLANISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI GEOGRAFIK OMILLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada asosiy e'tibor shahar aholi manzilgohlari, jumladan, shahar manzilgohlarining tarkib topishiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy sharoit, tabiiy resurs, iqtisodiy-ijtimoiy infratuzilma kabi geografik omillarning tutgan o'rni va roli, mazmun mohiyati, nazariy-uslubiy masalalari hamda ilmiy amaliy ahamiyatiga qaratilgan. Bunda, tabiiy sharoitni shaharsozlik nuqtai nazaridan o'rganishning ilmiy-uslubiy asoslari, shahar manzilgohlarida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda tabiiy sharoit va resurslardan oqilona foydalanishning amaliy ahamiyati, shahar manzilgohlari shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan geografik omillar, tabiiy geografik shaharsozlik nuqtai nazardan rayonlashtirishning nazariy-uslubiy jihatlarini viloyat misolida batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Aholi manzilgohi, shahar, geografik o'rin, tabiiy sharoit, tabiiy resurs, shaharsozlik, infratuzilma, rayonlashtirish.

## GEOGRAPHICAL FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF URBAN APPLICATIONS IN KASHKADARYA REGION

Abstract

This article focuses on the place and role of such geographical factors as natural conditions, natural resources, economic and social infrastructure, the essence of content, theoretical and methodological issues and the scientific and practical significance of urban settlements, including those affecting the composition of urban settlements. Scientific and methodological foundations for studying natural conditions from the point of view of urban planning, the practical significance of the rational use of natural conditions and resources in the placement of productive forces in cities, geographical factors influencing the formation of urban settlements, theoretical and methodological aspects of zoning from the point of view of natural geography.

**Keywords:** Population, city, geographical location, natural conditions, natural resources, urban planning, infrastructure, zoning.

## ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГОРОДОВ В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В данной статье основное внимание уделяется месту и роли таких географических факторов, как природные условия, природные ресурсы, экономическая и социальная инфраструктура, сущности содержания, теоретико-методологическим вопросам и научно-практической значимости городских поселений, в том числе влияющих на состав городских поселения. Научно-методические основы изучения природных условий с точки зрения градостроительства, практическое значение рационального использования природных условий и ресурсов при размещении производительных сил в городах, географические факторы, влияющие на формирование городских поселений, теоретико-методологические аспекты районирования с точки зрения естественной географии.

**Ключевые слова:** Население, город, географическое положение, природные условия, природные ресурсы, градостроительство, инфраструктура, районирование.

**Kirish.** Shaharlar yirik aholi manzilgohlari bo'lib, unda yashaydigan kishilar iktisodiyotning qishloq xo'jaligi tarmog'ida band bo'lmasdan, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy, xizmat ko'rsatish sohalarida mehnat faoliyatini olib borishadi. Shaharlar turli makon va zamonlarda iqtisodiy, siyosiy, boshqaruv va madaniy markaz rolini o'ynagan. Shahar aholi manzilgohlari o'Ichami jihatidan yirik va unda yashovchi aholi, qishloq aholi manzilgohlaridagiga nisbatan ko'p sonliligi hamda zichligi bilan farqlanadi. Aholi manzilgohlari shaharga aylanishida ularning iqtisodiy salohiyati, funksiyasi ham muhim mezonlardan biri. Aholi manzilgohlari tizimini iqtisodiy geografik nuqtai-nazardan o'rganish ilmiy-amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, aholi manzilgohlari ma'lum hududlarda ishlab chiqarishni hududiy shakllanishi va to'planishida tayanch nuqtalar hisoblanadi.

Shahar manzilgohlari joylanishida turli omillar, jumladan, geografik omillar (tabiiy sharoit, tabiiy resurs va b.) katta ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan Qashqadaryo viloyati shahar manzilgohlari shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan geografik omillarni aniqlash vazifalar belgilandi:

- tadqiqot doirasida adabiyotlar tahlilini olib borish;
- shahar manzilgohlarini o'rganishda geografiya uchun an'anaviy hisoblangan usullardan foydalanish mexanizmini tadqiq etish;
- shaharsozlik nuqtai nazardan rayonlashtirish yer resurslaridan qishloq xo'jaligida samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi, hududiy tashkil etish xususiyatlari va vujudga kelgan muammolarni o'rganish turli metod yoki usullar, yondashuvlar yordamida amalga oshirish.

**Materiallar va metodlar.** Aholi o'sishi va joylanishining muhim masalalaridan biri aholi punktlari joylanishining yagona tizimlarini barpo etishdir. Bunda aholi punktlari ishlab chiqarish, transport aloqalari, umumiy infratuzilma tarmoqlari, ijtimoiy-madaniy va dam olish joylari uzviy o'zaro bog'liq holda birlashgan bo'ladi. Ikkinchidan, aholi punktlari joylanishida tayanch markazlarni tashkil etishdir. Ba'zan, kichik aholi punkti uchun rayon markazi yoki kichik shahar aholi punkti tayanch vazifasini o'taydi [9,10,11].

Shaharlar shakllanishi va rivojlanishining asosida moddiy sharoit turadi u o'z ichiga sanoat mahsulotlari tayyorlash darajasi, hajmi, o'sish sur'atlari, aholining sanoatda bandligi va boshqalarni oladi. Bunda muhim o'rinni tabiiy sharoit va tabiiy resurslar egallaydi, ular mintaqalarda shaharlar to'ri va tarkibining rivojlanishiga, shahar hududida arxitektura-muhandislik inshootlari, ko'p qavatli turar joy hamda sanoat obyektlarining qurilishiga, sanitariya-ekologik holatiga, umuman olganda, shaharning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'sir ko'rsatadi.

Bozor munosabatlariga o'tish va hozirgi geoeologik sharoitda, shaharlarning milliy iqtisodiyotdagi rolini e'tiborga olgan holda, ularda sanoat korxonalari joylashtirishda tabiiy sharoit va resurslardan oqilona foydalanishning amaliy ahamiyati ortib bormoqda. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslardan foydalanish alohida hududlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan birga, ulardagi mehnat va xom ashyo resurslarining ishga solinishi mavjud shaharlarning kengayib borishi va yangi shaharlar tashkil topishida muhim o'rin tutadi.

Tabiiy sharoitni shaharsozlik nuqtai nazaridan o'rganishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish va umumlashtirilgan xulosalar berish shaharlarda murakkab infratuzilma va xo'jalik tarmoqlarini joylashtirishda ahamiyati katta. Shaharlar rivojlanishining tabiiy geografik jihatlar bilan sobiq Ittifoq iqtisodiy geograflari V.V.Pokshishevskiy (1952, 1963), Y.G.Saushkin (1953), V.V.Vladimirov, A.S.Kryukov (1963), A.M.Kolotiyevskiy (1962), mamlakatimiz olimlaridan N.V.Smirnov, T.Raimov, A.Soliev, G'.Pardayev, A.Sovatov, P.Qurbonov, A.Mavlonov va boshqalar shug'ullanishgan.

Umuman olganda, tabiiy sharoit va tabiiy resurslar shaharlar shakllanishi va rivojlanishining eng asosiy omili sanaladi. Qadim zamonlardan ham shaharsozlikda joyning tabiiy sharoiti hisobga olingan. Shahar manzilgohlari yoki qo'rg'onlar harbiy-strategik jihatdan qulay bo'lgan tepaliklarda, qattiq tog' jinslaridan iborat bo'lgan daryo qirg'oqlarida, serhosil allyuvial tuproqli yerlarda, sug'orma dehqonchilik madaniyati bilan bog'liq shaharlar daryolarning quyilish qismida joylashgan. Ayni vaqtda, u yoki bu tabiiy geografik komponentlarning noqulayligi yoki ularni e'tiborga olinmasligi sababli qator qadimiy shaharlar: Nasaf, Tuproqqal'a, Pop, Axi va boshqalar vayronaga aylangan [13]. Shaharsozlik nuqtai nazaridan, eng avvalo, relyef va gidrografik to'ring ahamiyati katta. Bu borada gidrogeologiya va iqlim singari tabiiy komponentlar ham hisobga olinishi kerak. Shunga o'xshash tabiiy landshaft xususiyatlari va ularning aholi punktlarining vujudga kelishi, arxitektura planirovkasiga ta'siri kabi munosabatlarini – urboekologiya o'rganadi [2].

Ma'lumki, yer ko'p qirrali va har xil maqsadlarda ishlatiladigan muhim tabiiy boylik hisoblanadi. Binobarin, u ayni vaqtda ham tabiiy sharoit, ham tabiiy resursdir. Jumladan, yerdan eng avvalambor qishloq xo'jaligida, shuningdek, yo'l, uy-joy va shaharsozlik maqsadlarida foydalaniladi. Bevosita shaharlarning shakllanishi va rivojlanishida, ularning loyiha-qurilishida, eniga va bo'yiga o'sishida joyning yer usti tuzilishi (relyefi), seysmik faolligi va boshqa geomorfologik xususiyatlari katta mazmunga ega.

Iqlimning xam shaharlar tashkil topishi va rivojlanishida ta'siri yuqori bo'lib, bunda, ayniqsa havo harorati va namligi, shamol rejimi va yo'nalishi, atmosfera yog'inlari singari iqlimning eng muhim elementlarini o'rni katta. Respublika iqlimining shakllanishida eng asosiy omil quyosh radiatsiyasi bo'lib, ushbu omil iqlimshunos olimlar tomonidan mamlakatimiz xududini cho'l-dasht, tog' oldi, tog' iqlim zonalariga ajratilishida asosiy mezon sifatida xizmat qilgan [3]. Binobarin, joyning iqlim xususiyatlari shaharsozlikda qurilish materiallarining turlariga, binolarining past-balandligiga, shahar ko'chalarining yo'nalishiga ta'sir etadi. Shu bilan birga, sanoat mujassamlashuv darajasining va aholi zichligining yuqoriligi bois, shaharlarda, ayniqsa yirik shaharlarda o'ziga xos mikroiklim shakllanadi. Mazkur jihatni Toshkent va Samarqand shaharlari iqlimi misolida A.Hisomov va G'.Pardayevlarning nomzodlik dissertatsiyasida yoritib berilgan (Hisomov A.V., Pardayev G', 1977).

Tabiiyki, suv manbalari, xususan arid o'lkalarda shaharlarning joylashishi va vujudga kelishiga kuchli ta'sir etadi. Bunday sharoitda hududning iqtisodiy negizini nafaqat shaharlar va yo'llar, balki gidrografik to'r ham belgilab beradi. Gidrografik omilda daryo va soylar, ularning gidrografik rejimi, o'zani, qiyaligi, uzunligi va havzasining eni, oqim tezligi, suv hajmi kabilar joyning demografik sig'imini, shaharlarning katta-kichikligini belgilab beradi. Qashqadaryo viloyati shaharlari ham aynan ushbu gidrografik omillar asosida shakllangan. Qolaversa, ushbu viloyatning nomida ham daryoning tarixiy-geografik ahamiyati o'z aksini topgan [4].

Qashqadaryo viloyati tabiiy turli maqsadlarda qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Chunonchi, L.N.Babushkin va N.A.Kogay Qashqadaryo viloyatini qishloq xo'jaligi nuqtai nazardan tabiiy rayonlashtirgan. Qashqadaryo okrugida Sandikli, Quyi Qashqadaryo, G'uzor va Kitob-Shaxrisabz tabiiy geografik rayonlarini ajratgan [5]. Bunday tabiiy geografik rayonlashtirish I.A.Hasanov va P.N.G'ulomovlarning O'zbekiston tabiiy geografiyasi o'quv qo'llanmasida ham qisman qayd etilgan [15]. M.A.Fayzullayev Janubiy O'zbekistonni qishloq xo'jaligi rayonlashtirishida Qashqadaryo viloyatini 3 ta agrogeografik rayonga (Yuqori Qashqadaryo, O'rta Qashqadaryo, Quyi Qashqadaryo) ajratgan [12]. Bevosita shaharsozlik maqsadida tabiiy geografik sharoitni tahlil qilish va ularni rayonlashtirish bilan N.V.Smirnov hamda A.Sagatovlar shug'ullanishgan. N.V.Smirnov shaharsozlik nuqtai nazardan respublika hududini ikkita katta – tekislik va tog' oldi-tog' oblastlariga hamda ularning ichida o'nta tabiiy geografik okruglarga ajratib o'rgangan [7].

P.Qurbonov Qashqadaryo viloyatini tabiiy geografik shaharsozlik nuqtai nazardan rayonlashtirishda landshaft prinsipiga asoslangan ilmiy ishlarni hisobga olgan holda quyidagi uchta zonaga ajratish maqsadga muvofiq deb topgan [14]:

1. Tekislik zonasi (400 metrgacha);
2. Tog' oldi va past tog'lar zonasi (400-1000 metr);
3. Tog' zonasi (1000 metrdan yuqori).

Bunda mintaqaning uzoq geologik tarixi va geologik jarayonlarining ta'sirida shakllangan hududning yer usti tuzilishi, mineral xom ashyo va yoqilg'i resurslarining tarqalishi, seysmik xolati, iqlimi, yer usti va yer osti suvlari kabi tabiiy komponentlar muhim o'rin tutadi.

Ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yil yanvar holatida Qashqadaryo viloyati shahar manzilgohlarining 63.8 foizi (164 ta) va ulardagi aholining 64.9 foizi tekislik zonasiga to'g'ri kelgan. Viloyatning ma'muriy va ko'p funksiyali markazi Qarshi aynan shu zonada joylashgan. Shuningdek, bu yerda yangi maydonlarni o'zlashtirish asosida vujudga kelgan agrosahar manzilgohlari –

Koson, Beshkent, Yangi-Nishon, gidrotexnik inshootlar qurilishi munosabati bilan Talimarjon hamda Muborak – “resurs” shahri tarkib topgan.

Viloyat tabiiy geografik o'rnini shaharsozlik nuqtai nazardan qulay yoki noqulay ekanligini belgilashda uning yer usti tuzilishi, relyefi bilan birga hududning foydali qazilma konlari bilan qanday ta'minlanganligi ham katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, shaharlarning ikki asosiy shahar hosil qiluvchi va shaharga xizmat qiluvchi (ichki yo'lovchi transporti, shahar aholisiga xizmat qiluvchi tarmoqlar) funksiyalari mavjud. Shahar hosil qiluvchi omillarga transport, ilm-fan, dam olish maskanlari, bank-moliya, har xil foydali qazilmalari konlari, turizm kabilar kiradi. Ular orasida tabiiy sharoit va resurslar omili eng muhimi bo'lib, ushbu omil asosida shakllangan shaharlar “resurs shaharlar” deb ataladi [14].

Qashqadaryo viloyati ayrim tabiiy xom ashyo resurslarini qazib olish bo'yicha nafaqat mintaqada, respublikada ham asosiy o'ziga xos “lokomotiv” vazifasini bajaradi. Jumladan, mamlakatda qazib olinayotgan neftning 78 foizi, tabiiy gazning 70 foizi, gaz kondensatining 80 foizi, oltingugurtning deyarli 100 foizi ushbu hudud zimmasiga to'g'ri keladi [1]. Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lining foydalanishga topshirilishi natijasida Dehqonobod tumanidagi kaliy tuz konlarini o'zlashtirish imkoniyati tug'ildi. Hozirgi kunda ushbu kon bazasida O'zbekistonda yagona kaliy zavodi barpo etilgan bo'lib, mazkur ishlab chiqarish obyekti viloyatning milliy iqtisodiyotdagi rolini yanada oshishiga xizmat qilmoqda.

Qashqadaryo viloyatining yuqori qismida joylashgan Kitob-Shaxrisabz rayoni ham tog' va tog' oldi hududlarda shakllangan. Bu yerning tabiiy iqlim sharoiti respublikaning vodiy va vohalariga o'xshab ketadi. Shuning uchun ham ushbu rayonda aholi zich, sug'orma dehqonchilik va bog'dorchilik rivojlangan, shaharlar to'ri va tizimi shakllanish uchun qulay sharoit mavjud. Umumiy maydoni taxminan 4.8 ming kv.km.ni egallagan holda, bu yerda 59 ta shahar va shaharchalar joylashgan; zichlik har ming kv.km.ga 12 ta shahar manzilgohlari to'g'ri keladi. Ayni vaqtda Qashqadaryo viloyatining cho'l zonasini, ya'ni Qarshi cho'li namgarchilik va suv resurslarining kamligi sababli aholi joylashuvi va shaharsozlik nuqtai nazardan qulay emas. Biroq, bunday hududlar mineral resurslarga, birinchi navbatda, neft va tabiiy gaz konlariga boy. Qolaversa, yangi yerlarni o'zlashtirish va agrar-industrial siklning vujudga kelishi hamda mavjud qazilma konlaridan foydalanish asosida shaharlar, shu jumladan, resurs shahar manzilgohlari vujudga kelgan.

Orografik obyektlar bilan bir qatorda gidrografik manbalarning ham aholi geografiyasi va shaharlar shakllanishida, ayniqsa issiq iqlim va sug'orma dehqonchilik sharoitida katta ahamiyatga ega. Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining negizini yoki uning tarixiy-geografik ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosini Qashqadaryo daryosi tashkil qiladi. Aynan shu daryo va ularning irmoqlari (Oqsuv, Tanxoz, Qizilsuv, Langar, G'uzor) hamda ushbu daryolar havzasida barpo etilgan suv omborlari (Chimqo'rg'on, Pachkamar, Hisorak, Yakkabog') mintaqa aholi manzilgohlari joylashuvini belgilab beradi.

Qashqadaryoning irmoqlari shaharlar shakllanishida faol ishtirok etgan. Jumladan, Jinnidaryo va Oqdaryo – Kitob, Miroqi; Oqdaryo va Tanxozdaryo – Shaxrisabz; Yakkabog'daryo – Eski Yakkabog', Yakkabog'; Langardaryo – Qamashi; G'uzordaryo – G'uzor; Kichik O'radaryo – Dehqonobod kabi shahar joylarning tashkil topishi va rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynagan. Shuningdek, Qashqadaryoning o'zi Chiroqchi, Qarshi, Koson, Muborak singari shaharlar rivojlanishida asos bo'lgan. Hozirgi vaqtda Qashqadaryo havzasida 104 ta shahar manzilgohlari mavjud bo'lib, ularda viloyat aholisining 85.1 foizi istiqomat qilmoqda.

2009 yilni respublikamizda “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” deb e'lon kilinishi munosabati bilan urbanistik vaziyatda keskin o'zgarish yuz berdi. Yangi urbanistik siyosat tufayli O'zbekistonda birdaniga 966, Qashqadaryo viloyatida esa 119 qishloq aholi punktiga shaharcha maqomi berildi. Ularning hozirgi real holatini hisobga olib, “agrosaharlar” deb atash mumkin [8]. Qashqadaryo viloyatida yangi shaharchalar salmog'iga ko'ra Shaxrisabz (18 ta), Kitob va Yakkabog' tumanlari (har birida 13 tadan) alohida ajralib turadi. Aholi soni va zichligi yuqori bo'lgan ushbu hududda jami 44 ta qishloq shaharcha maqomini oldi (viloyatdagi jami shaharchalarning 37.3 foizi). Shuningdek, cho'l hududlarini o'zlashtirish bilan bog'liq, asosan qishloq xo'jaligi va agrosanoat tarmoqlariga ixtisoslashgan Qarshi (15ta), Koson (14 ta), Kasbi (9 ta), Nishon (8 ta) kabi tumanlar ham bu borada alohida o'ringa ega. Ayni vaqtda viloyatning Qamashi, G'uzor, Mirishkor va Dehqonobod tumanlarining faqatgina ikkitadan beshtagacha qishloqlari shaharchalarga aylandi.

Qashqadaryo viloyatidagi yangi shaharchalar aholi soni bo'yicha ham turli-tuman. Aholi soni 10 mingdan ortiq bo'lgan yangi shaharchalar sinfiga Maymanoq, Ayritom, Qarliq, Mirishkor, Fazli, Pomuq, Jeynov aholi punktlari kiradi. Viloyat shaharchalarning o'rtacha aholi soni bo'yicha respublika ko'rsatkichidan past. Umuman olganda, yangi tashkil etilgan shaharchalar hisobiga viloyat urbanizatsiya ko'rsatkichi 24.6 foizdan 42.8 foizga oshdi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib Qashqadaryo viloyati shahar manzilgohlari shakllanishiga geografik o'rin alohida ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, tabiiy geografik o'rin, ya'ni tabiiy obyektlarga nisbatan tutgan o'ri, tabiiy resurslarga nisbatan, xom-ashyo resurslariga nisbatan, qishloq xo'jaligi xom ashyosi ishlab chiqaradigan rayonlarga nisbatan tutgan o'ri shahar manzilgohlari shakllanishiga xizmat qilgan. Viloyat shahar manzilgohlari shakllanishining eng muhim xususiyatlari hududning murakkab yer usti tuzilishi, issiq iqlimi, tabiiy resurslarga boyligi, demografik jihatdan aholisining tez o'sib borishi bilan tavsiflanadi. O'zbekiston Respublikasida yuz berayotgan geodemografik to'liqlar zanjirida viloyat o'ziga xos o'ringa ega. Qashqadaryo viloyatining tarixiy-geografik rivojlanishida gidrografik omillar, xususan, daryolar katta ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan Qashqadaryo O'zbekiston viloyatlari orasida suv resurslari bilan nisbatan yaxshi ta'minlanmaganligiga ko'ra alohida ajralib turadi, ayniqsa, uning quyi qismida bu muammo keskin holatga ega.

Respublikaning boshqa hududlarida bo'lgani kabi Qashqadaryo viloyatida ham “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturini amalga oshirish jarayonida yuzlab qishloqlar shaharcha maqomini oldi. Hozirgi kunda ularning barchasi ham bunday talabga, meyoriy ko'rsatkichlarga to'liq javob bermaydi. Shu sababdan yangi shaharchalar-agrosaharlarda ishlab chiqarish va infratuzilmani, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga, viloyat urbanizatsiyasini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish lozim.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. 2020 yil 13 noyabrda Qashqadaryo viloyatini kompleks rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasi. Asosiy manba: <https://president.uz/uz/lists/view/3948>
2. Владимиров В. В., Микулина Е. М., Яргина З. Н. Город и ландшафт: (проблемы, конструктивные задачи и решения). – М.: Мысль, 1986. – 238 с.
3. Glazirin G. YE., Chanisheva S. G., Chub V. YE. O'zbekiston iqlimining qisqacha ocherki. – T.:Chinor ENK, 1999. – 30 b.

4. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – T.: Muharrir, 2009. – 432 b.
5. Природные условия и ресурсы юго-западного Узбекистана. Т.: Наука, 1965. – 402 с.
6. Симагин Ю.А. Территориальная организация населения и хозяйства / Под общ. ред. В.Г. Глушковой. – М.: КНОРУС, 2005. – 384 с.
7. Смирнов В.Н. О влиянии природных условий и природных ресурсов на развитие и размещение городских поселений Узбекистана. // Вопросы физической и экономической географии Узбекистана, 1967, с. 75 – 104.
8. Soliyev A. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. – Toshkent, "Universitet", 2014. – 404 b.
9. Tojiyeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi (Monografiya). – T.: «Fan va texnologiya», 2010. – 276 b.
10. Tojiyeva Z.N. O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari. Doktorlik dissertatsiyasi. – T., 2017. – 224 b.
11. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi. Darslik – Toshkent.: "Nodirabegim", 2019. – 254 b.
12. Fayzullayev M.A. Janubiy O'zbekiston qishloq xo'jaligi geografiyasi (Monografiya). Qarshi, "Universitet", 2019. – 245 b.
13. Xoliqov A. Qashqadaryo vohasida XIX – XX asr boshlarida shaharsozlik va urbanizatsiya darajasi // O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari: tarix va hozirgi zamon. Xalqaro ilmiy – amaliy anjuman materiallari. I qism // – T., 2007. – B. 121 – 124.
14. Qurbonov P.R. Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari (Monografiya). Toshkent "Mumtoz so'z", 2019. – 174 b.
15. Hasanov I. A., G'ulomov P. N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. – T.: O'qituvchi, 2007. – 164 b.